



QASHQADARYO VILOYATIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI



Dastlabki ma'lumot
2023- yil yanvar-fevral oylari




CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistika ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Jumladan, ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan. 2023- yil 1- mart holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar soni 8373 tani tashkil etib, 2022- yil 1- martga nisbatan 834 taga oshgan (o'sish sur'ati 111,1 %). Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 23 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 8350 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATTLar va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlar asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan.

Chakana savdo aylanmasining asosiy ko'rsatkichlari



Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2023-yilning yanvar-fevral oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi **2424,2** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan **95,6 %** ga etdi.

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **134,8** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **135,3 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **1921,8** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **93,1 %**), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **367,6** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **98,9 %**) tashkil etdi.

CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI




	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar – fevral oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022- yil yanvar – fevral oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2022- yil yanvar – fevral oylariga nisbatan, foizda
Viloyat bo'yicha	2424,2	95,6	134,8	135,3	1921,8	93,1
shaharlar:						
Qarshi	658,8	102,6	94,2	181,6	536,5	95,0
Shahrisabz	198,8	93,1	2,6	150,0	189,5	92,2
tumanlar:						
G'uzor	96,9	94,1	0,9	43,5	74,4	93,8
Dehqonobod	82,8	93,5	1,1	92,8	70,0	92,5
Qamashi	175,6	95,2	1,6	59,3	141,5	94,3
Qarshi	67,0	91,4	2,4	80,8	59,0	91,2
Koson	156,8	98,1	8,9	2,6 m.	143,1	94,1
Kitob	145,7	92,2	1,6	25,4	110,1	93,3
Mirishkor	81,5	92,2	1,4	137,2	76,8	91,3
Muborak	72,2	104,2	7,7	8,6 m.	47,8	92,7
Nishon	95,1	91,4	1,2	77,1	75,8	89,8
Kasbi	82,5	91,0	1,9	116,0	71,4	89,5
Ko'kdala	103,6	92,9	0,1	-	70,6	90,9
Chiroqchi	201,6	89,7	3,2	25,5	88,6	92,5
Shahrisabz	88,8	91,2	4,4	63,5	71,0	92,1
Yakkabog'	116,8	92,6	1,8	59,5	95,6	92,3

2023- yilning yanvar-fevral oylarida 2022- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan viloyatning Qarshi shahri (**102,6 %**), Muborak (**104,2 %**), Koson (**98,1 %**) va G'uzor tumanlarida (**94,1 %**) chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.


YILLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI

Chakana savdo tovar aylanmasi dinamikasi
(yanvar-fevral, mlrd.so'm)




So'nggi **6 yillikda** chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2023- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2021- yilning mos davriga nisbatan **95,6 %** ni yoki **2424,2 mlrd. so'mni** tashkil qildi.

Chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati
oylar kesimida (foizda)
(2022- yil, 2023- yil yanvar-fevral oylari)



2023- yilning yanvar-fevral oylarida o'sish sur'ati **95,6 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi ulushi (foizda)



Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni, Qarshi shahri **27,2 %** bilan **658,8** mlrd. so'mni tashkil etdi.


Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulush esa, Qarshi tumani **2,8 %** bilan **67,0** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Viloyatimiz chakana savdo tovar aylanmasida barcha hududlarda kamayish kuzatildi.


CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **1921,8** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan **93,1** % ga kamaydi. Viloyat miqiyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **79,3** % ni tashkil etdi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)




Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2022- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan **35,3** % ga o'sdi va **134,8** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **5,6** % ulushiga to'g'ri keldi.

CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Ko'kdala (**99,9 %**), Qamashi va G'uzor tumanlari (**99,1 %**) yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi **5,6 %** ni tashkil etib, eng katta ulush Qarshi shahri (**14,3 %**), Muborak (**10,6 %**), Koson (**5,7 %**), Shahrisabz (**4,9 %**) tumanlarida kuzatildi.

AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

Hududlar kesimida ma'lumot


	Hajmi, ming so'm	O'sish sur'ati, foizda
Viloyat bo'yicha	703,6	93,6
shaharlar:		
Qarshi	2301,1	100,5
Shahrisabz	1382,3	91,7
<i>tumanlar:</i>		
G'uzor	451,3	92,0
Dehqonobod	535,3	91,6
Qamashi	618,8	93,2
Qarshi	255,2	89,2
Koson	520,8	95,8
Kitob	532,1	90,5
Mirishkor	649,1	90,2
Muborak	792,0	102,1
Nishon	590,7	89,3
Kasbi	399,9	89,1
Ko'kdala	576,4	220,3
Chiroqchi	780,4	78,3
Shahrisabz	387,3	106,8
Yakkabog'	426,3	90,8

2023- yilning yanvar-fevral oylari holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **703,6** ming so'mni (2022- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan **93,6** %) tashkil etdi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda, eng yuqori hajm Qarshi (**2301,1** ming so'm), Shahrisabz (**1382,3** ming so'm) shaharlari va Muborak tumani (**792,0** ming so'm) hissasiga to'g'ri keldi.

Viloyat bo'yicha 2023- yilning yanvar-fevral oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **367,6** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan **98,9** % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarda savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **68,7** mlrd. so'mni (**100,1** %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **100,5** mlrd. so'mni tashkil etdi (**89,6** %).

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasida yuqori hajmli hududlar (mlrd. so'm)



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati, (foizda)




UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda uyushmagan savdo tovar aylanmasi ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar taylanmasi o'sish sur'ati, foizda

Название диаграммы



Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shahobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON* VA CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

	Jami, mlrd. so'm	2022- yil yanvar – fevral oylariga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2022- yil yanvar – fevral oylariga nisbatan, foizda	Chorva bozorlari, mlrd. so'm	2022- yil yanvar – fevral oylariga nisbatan, foizda
Viloyat bo'yicha	367,6	98,9	180,8	110,8	186,8	89,7

shaharlar:

Qarshi	28,1	107,9	28,1	108,3	-	-
Shahrisabz	6,6	123,0	6,6	108,3	-	-

tumanlar:

G'uzor	21,6	100,2	19,1	132,8	2,5	35,5
Dehqonobod	11,7	99,9	7,0	3,1 m.	4,7	50,2
Qamashi	32,4	102,5	22,8	133,2	9,7	66,7
Qarshi	5,5	100,3	-	-	5,5	99,1
Koson	4,8	108,2	2,3	2,9 m.	2,5	69,0
Kitob	34,0	100,6	27,7	107,9	6,2	77,3
Mirishkor	3,2	101,0	1,5	51,4	1,7	5,0 m.
Muborak	16,7	99,3	7,5	66,3	9,2	169,2
Nishon	18,2	99,9	8,2	124,3	10,0	85,7
Kasbi	9,2	100,2	4,1	2,3 m.	5,1	68,2
Ko'kdala	32,9	97,5	14,8	79,7	18,1	106,5
Chiroqchi	109,8	93,3	16,3	74,9	93,5	72,7
Shahrisabz	13,4	100,0	6,0	77,9	7,4	130,7
Yakkabog'	19,4	99,2	8,7	46,3	10,7	11,8 m.

* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;











– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

2023- yilning yanvar-fevral oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **163,4** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm, yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**64,6** mlrd. so'm) to'g'ri keldi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari		mlrd. so'm
	Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari	64,6
	Non va non mahsulotlari	25,0
	Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar)	16,0
	Tovuq go'shti	10,3
	Qurilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari (yong'och, bodom, pista va boshqalar)	6,1
	Sut va sut mahsulotlari (pishloq, brinza va boshqalar)	10,2
	Tuxum	8,8
	Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – hashak	3,7
	Ziravorlar	8,2
	Tuzlamalar	2,7
	Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari (manzarali va qishloq xo'jaligi)	0,5
	Nooziq-ovqat tovarlari	-

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI, mlrd so‘m

2023- yilning yanvar-fevral oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuv o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi **186,8** mlrd. so‘mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi **145,8** mlrd.so‘m, qo‘y va echkilar – **31,8** mlrd. so‘mni, otlar – **8,3** mlrd. so‘mni, parrandalar – **1,0** mlrd. so‘mni tashkil qildi.

Chorva mollari (parrandalar)		mlrd. so‘m
	2 yoshdan kata bo‘lgan qoramollar	87,3
	1 yoshdan 2 yoshgacha bo‘lgan yosh mollar	29,2
	1 yoshgacha bo‘lgan yosh mollar	29,3
	Qo‘ylar	25,7
	Otlar	8,3
	Echkilar	6,1
	Kurka, o‘rdak, g‘oz	0,6
	Tovuqlar	0,4
	Quyونlar	-
	Qushlar	-

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI



2023- yil 1- mart holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni 1768 tani tashkil etib, 2022- yil 1 – mart holatiga nisbatan 286 taga oshgan va o'sish sur'ati 117,5 % tashkil etgan. Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 1766 tani tashkil qildi.


2023- yilning yanvar-fevral oylarida chakana tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasining ulushi **2,3 %** ni tashkil etib, **59,8** mlrd. so'mga yetdi. 2022- yilning mos davriga nisbatan **91,7 %** ga kamaydi. Bunda savdo aylanmasining **94,3 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.

	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar – fevral oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022- yil yanvar – fevral oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va mikrofirmalar, mlrd. so'm	2022- yil yanvar – fevral oylariga nisbatan, foizda
Viloyat bo'yicha	59,8	91,7	3,4	132,1	56,4	90,1
<i>shaharlar:</i>						
Qarshi	18,5	69,0	3,1	137,3	15,4	62,7
Shahrisabz	4,3	118,4	-	-	4,3	118,4
<i>tumanlar:</i>						
G'uzor	3,4	103,2	0,3	95,8	3,1	104,0
Dehqonobod	1,9	140,2	-	-	1,9	140,2
Qamashi	3,6	163,9	-	-	3,6	163,9
Qarshi	2,7	101,3	-	-	2,7	101,3
Koson	2,5	124,7	-	-	2,5	124,7
Kitob	5,6	157,5	-	-	5,6	157,5
Mirishkor	1,2	126,0	-	-	1,2	126,0
Muborak	1,1	20,9	-	-	1,1	20,9
Nishon	1,6	27,5	-	-	1,6	27,5
Kasbi	1,8	115,6	-	-	1,8	115,6
Ko'kdala	1,4	184,8	-	-	1,4	184,8
Chiroqchi	3,5	2,0 m.	-	-	3,5	2,0 m.
Shahrisabz	2,6	166,4	-	-	2,6	166,4
Yakkabog'	4,2	185,5	-	-	4,2	185,5

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

2023- yil 1- mart holatiga avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*IFUT-2 45- bo'lim 45.2 va 45.40.3 kodlaridan tashqari – motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish*) **465,6** mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan **241,6** % o'sish sur'ati kuzatildi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi **409,1** mlrd. so'm (o'sish sur'ati **302,5** %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyetklari savdo hajmi **56,5** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati – **94,7** %) tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os'ish sur'ati, foizda



Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi




Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajm, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
Viloyat bo'yicha	465,6	100,0
<i>shaharlar:</i>		
Qarshi	430,1	92,4
Shahrisabz	2,8	0,6
<i>tumanlar:</i>		
G'uzor	0,3	0,1
Dehqonobod	0,6	0,1
Qamashi	0,1	0,0
Qarshi	19,7	4,2
Koson	1,2	0,3
Kitob	1,3	0,3
Mirishkor	1,4	0,3
Muborak	1,6	0,3
Nishon	0,7	0,1
Kasbi	1,0	0,2
Ko'kdala	0,3	0,1
Chiroqchi	3,7	0,8
Shahrisabz	0,4	0,1
Yakkabog'	0,4	0,1


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Qarshi shahri (**430,1** mlrd. so'm), Qarshi (**19,7** mlrd. so'm) va Chiroqchi (**3,7** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning qiymati, ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘mda



Viloyat bo‘yicha 2023- yilning yanvar-fevral oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **498,3** mlrd. so‘mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **99,3** % ga kamaydi.




Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda **398,3** mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **86,6** % ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi **79,9** % ni tashkil qildi.

ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK VA KICHIK KORXONALAR

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori o'sish sur'atlariga ega yirik korxonalar Kasbi tumani (**3,0 b.**) va Qarshi shahri (**2,6 b.**) da kuzatildi.

2023- yil 1- mart holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni **2249** tani tashkil etib, 2022- yil 1- mart holatiga nisbatan **159** taga ko'paygan, o'sish sur'ati **107,6 %** tashkil etgan. Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 18 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **2231** tani tashkil qildi.

	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar – fevral oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022- yil yanvar – fevral oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va mikrofirma- lar, mlrd. so'm	2022- yil yanvar – fevral oylariga nisbatan, foizda
Viloyat bo'yicha	498,3	99,3	100,0	239,6	398,3	86,6
shaharlar:						
Qarshi	253,9	107,7	74,0	255,2	179,9	87,0
Shahrisabz	40,0	86,5	-	-	40,0	86,5
tumanlar:						
G'uzor	11,0	86,0	-	-	11,0	86,0
Dehqonobod	2,8	83,1	-	-	2,8	83,1
Qamashi	8,0	85,7	-	-	8,0	85,7
Qarshi	37,4	90,2	3,7	136,7	33,7	86,9
Koson	57,2	83,6	-	-	57,2	86,9
Kitob	19,0	85,5	-	-	19,0	86,4
Mirishkor	1,4	91,4	0,2	-	1,2	78,1
Muborak	4,9	95,1	0,5	-	4,4	84,6
Nishon	3,5	83,9			3,5	83,9
Kasbi	28,1	188,9	21,6	301,3	6,6	85,1
Ko'kdala	4,0	86,3	-	-	4,0	86,3
Chiroqchi	8,0	84,6	-	-	8,0	84,6
Shahrisabz	7,4	85,6	-	-	7,4	85,6
Yakkabog'	11,8	85,9			11,8	86,2



**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Тел. 75-221-44-28**